Аннотация: В статье научно проанализированы перспективы использования маркетинговых инструментов для обеспечения экономической безопасности предприятий электротехнической промышленности. В исследовании показаны возможности повышения устойчивости и конкурентоспособности предприятий с помощью маркетинговой стратегии, конкурентной разведки и инновационных подходов. Кроме того, разработаны предложения по адаптации маркетинга в условиях кризиса, рациональному использованию ресурсов и прогнозированию потребительских потребностей. Полученные результаты способствуют росту экономической эффективности и показателей безопасности деятельности предприятий.

Ключевые слова: маркетинговая стратегия, конкурентная разведка, экономическая безопасность, инновация, прогноз.

KIRISH

Jahonda so'nggi to'rt yil ichida biznes razvedkasi va tahlili xizmatlari bozori hajmi 130 milliard AQSh dollaridan 200 milliard AQSh dollariga yetdi. Katta miqyosdagi korporativ ma'lumotlar bazalari, mobil ilovalar, veb-tahlil ma'lumotlari hamda ijtimoiy media ma'lumotlari katta hajmdagi (Big Data) bilan ishlash uchun yangi marketing vositalarini joriy etishni taqozo qilmoqda. Marketingning asosiy jihati bo'lgan mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash, bir nechta turli xil ma'lumotlar manbalari bo'yicha korrelyatsiyalarni topish hamda mahsulot yoki xizmatlarni sotishni bashorat qilish kabi vazifalarni bajarishda raqobat razvedkasi vositalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda, jumladan Germaniyaning Bundesnachrichtendienst, Fransiyaning SDECE, Shvetsiyaning Upplysins Centralen hamda Yaponiyaning JETRO kabi tashkilotlarida sanoat ayyoqchiligiga

qarshi kurashish, korxonalarda raqobat razvedkasini tadbiiq etish, zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish va elektrotexnika sanoati korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqish bo’yicha keng ko’lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, elektrotexnika sanoati korxonalari iqtisodiy xavfsizligini zamonaviy marketing yondashuvlari asosida ta’minlashning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini o’rganish bugungi kunning dolzarb ilmiy yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida, jumladan elektrotexnika sanoati korxonalarining jahondagi raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022—2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida»gi PF-60-son Farmonida, xususan «milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o’sish sur’atlarini ta’minlash» vazifalari belgilangan. Shundan kelib chiqib, elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini oshirish yuzasidan ichki imkoniyatlarni kompleks rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini tubdan yangilash va mavjud resurslardan samarali foydalanish bo’yicha tadqiqotlarni amalga oshirish muhim masala bo’lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash masalalari xorijiy olimlardan Nyanga, C. [3]; Fahey, L. [4]; Demin, A. [5]; Gribov, V.D.; Gruzinov, V.P.; Kuzmenko, V.A. [6]; Doronin, A.I. [7]; Stepchenko, T.S.; Dovbysh, V.Ye. [8]; Coldatova, N.F. [9] va boshqalarning asarlarida keng o’rganilgan. Ularning tadqiqotlarida, asosan, korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash va raqobat razvedkasini tashkiliy jihatdan qo’llash masalalariga e’tibor qaratilgan.

O‘zbekistonda esa korxonalar iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning nazariy hamda uslubiy asoslari mahalliy olimlarimizdan A. Burxanov, S. G’ulomov, P. Pardayev, T. Shodiyev, N. Maxmudov, B. Berkinov, B. Xasanov va boshqalarning ilmiy asarlarida keng yoritilgan.

Shu bilan birga, yuqoridagi mualliflarning tadqiqotlarida elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini raqobat razvedkasi vositalaridan foydalanish orqali ta’minlash masalasi yetarlicha o’rganilmagan. Shu sababli, iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridan biri bo’lgan elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini chuqur tadqiq etish va amaliy jihatdan takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda marketing vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o’rganildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik kuzatuv, iqtisodiy-matematik modellashtirish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, korxonalar faoliyatiga oid milliy va xalqaro tajribalar tahlil qilinib, SWOT va SEM modellaridan amaliy natijalarni baholashda foydalanildi. Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi hisobotlari hamda korxonalarining moliyaviy ko’rsatkichlari asosida jamlandi. Tadqiqot jarayonida marketing strategiyasi, raqobat razvedkasi va prognozlash yondashuvlari ilmiy asosda tadbiiq etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inqiroz korxonani mutlaqo yangi ish sharoitlarida ishlashga majbur qiladi va tabiiyki, kompaniyaning marketing strategiyasi ham yangi sharoitlarga moslashib o’zgarishi kerak. Hozir bozor o’zini qanday tutishini bilib bo’lmaydi, demak, nimanidir rejalashtirish befoйда degan yangilish fikr keng tarqalgan. Ammo bunday emas, aksincha, har bir qadamni yaxshilab o’ylab bosish zarur, zero bugungi vaziyatda har qanday xato kompaniya faoliyatida avvalgiga qaraganda bir necha baravar og’riqli aks etishi mumkin.

Zamonaviy marketing – bu strategiyaning marketing taktikasi bilan birlashuvi. U bozor faoliyatining sof taktik vositasidan strategik-taktik marketinggacha tadbiiy o’sib rivojlandiki, unda strategiya kompaniyaning butun marketing konsepsiyasining yo’nalishiga aylanadi. Marketing strategiyasining negizini xaridorlar ehtiyojlari va ularning idroki shakllantiradi. Zamonaviy marketing – bu endi nafaqat iste’molchilarning idrokini boshqarish, balki iste’molchilarning mahsulot yoki xizmatni iste’mol qilishdan qoniqishini shakllantirish marketingidir.

«Marketing strategiyasi» so’nggi yillarda birmuncha o’zgardi. Ilgari marketing strategiyasi – bu strategik vazifalarni bajarish bo’yicha marketing harakatlari rejasi sifatida tushunilgan bo’lsa, hozirgi zamon voqeligida marketing strategiyasi biznes vazifalarini samarali hal qilish uchun resurslar va marketing xarajatlarini taqsimlashni nazarda tutadi.

Marketing strategiyasi har qanday kompaniyaga, uning ko’lami qanday bo’lishidan qat’i nazar: kichik korxonalariga ham, o’rta va yirik firmalarga ham birdek zarur. Iqtisodiy mavhumlik sharoitida marketing strategiyasiga ehtiyoj keskin oshadi, chunki kompaniyaning o’z resurslari yetishmaydi va samarali xo’jalik yuritish uchun iqtisodiy resurslarning barchasini oqilona joylashtirish hamda ulardan foydalanish talab etiladi. [9]

Marketing strategiyasini marketing faoliyati yo'nalishlarining butun bir bloki sifatida tasavvur qilish mumkin, aynan ular strategiya yo'nalishini shakllantiradi. Zamonaviy marketing strategiyasi uchta "K"ni amalga oshirishni ta'minlashi shart: koordinatsiya (muvoqilashtirish), konsentratsiya (jamlash) va kommunikatsiya. Marketing strategiyasi marketingga yo'naltirilgan resurslarni strategik biznes-vazifalarni hal qilishga safarbar qiladi va ularni muvoqilashtiradi.

Kompaniyada ishlaydigan marketologlar o'z oldida turgan vazifalarni qanday hal qilish yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lishi, o'z funksiyalarini qanday bajarishlarini aniq tushunishi kerak. Aynan marketing strategiyasi turli nuqtai nazarlarni muvoqilashtiradi va marketing vazifalarining bajarilishini ta'minlaydi, bunda marketing faoliyati kompaniya ishining turli yo'nalishlarini uyg'unlashtiradi.

Xodimlar marketing strategiyasi konsepsiyasini va har bir xodimning uni amalga oshirishdagi majburiyatlarini tushunishi uchun marketing strategiyasi xodim va hamkasblar o'rtasida, menejment va rahbariyat o'rtasida samarali kommunikatsiyalarni yo'lga qo'yishi kerak.

Ichki bozorlarda keskin raqobat va kompaniyalarning pozitsiyasi marketing strategiyasining qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog'liq. Agar xodimlar o'z harakatlarini muvoqilashtirsa, sa'y-harakatlarini kerakli yo'nalishda jamlasa va ish yakunlarini atrofdegilarga taqdim etsa, strategiyani amalga oshirishdan natija eng yuqori bo'lishi mumkin.

Mahsulotning zamonaviy marketing strategiyasi to'rtta komponentdan iborat: maqsadli bozor, iqtisodiy vazifalar, mahsulotning xaridorlar ongidagi tasavvuri va dasturlar. Targeting va mahsulot tasavvuri marketing strategiyasining asosidir. Ushbu yo'nalishlarda ishlamasdan marketing strategiyasi harakatlarni muvoqilashtira olmaydi, jamlay olmaydi va atrofdegilarga muhim axborotni yetkaza olmaydi.

Marketing strategiyasini aniq tushunmasdan, bozorning maqsadli segmentlarini tanlamasdan va ularda mahsulot tasavvurini yaratmasdan marketingning taktik dasturlarini ishlab chiqib bo'lmaydi. Taktik marketing strategik marketingning o'rnini bosa olmaydi. Mavhumlik sharoitida marketing taktikasining o'zi uchun yetarli ekanligi haqidagi nuqtai nazar esa o'ta xavfli xato bo'lishi mumkin. Marketing strategiyasiga ega bo'lmasdan turib marketing sohasida taktik qarorlarni qabul qilish ularning kelajakdagi oqibatlarini hisobga olmasdan harakat qilishga tengdir.

Inqiroz korxonani mutlaqo yangi ish sharoitlarida ishlashga majbur qiladi va tabiiyki, kompaniyaning marketing strategiyasi ham yangi sharoitlarga moslashib o'zgarishi kerak. Hozir bozor o'zini qanday tutishini bilib bo'lmaydi, demak, nimanidir rejalashtirish befoyda, degan yangilish fikr keng tarqalgan. Ammo bunday emas, aksincha, har bir qadamni yaxshilab o'ylab bosish kerak, zero bugungi vaziyatda har qanday xato kompaniya faoliyatida avvalgiga qaraganda bir necha baravar og'riqli aks etishi mumkin.

Zamonaviy marketing – bu strategiyaning marketing taktikasi bilan birlashuvi. U bozor faoliyatining sof taktik vositasidan strategik-taktik marketinggacha tadrijiy o'sib rivojlandiki, unda strategiya kompaniyaning butun marketing konsepsiyasining yo'nalishiga aylanadi. Marketing strategiyasining negizini xaridorlar ehtiyojlari va ularning idroki shakllantiradi. Zamonaviy marketing – bu endi nafaqat iste'molchilarning idrokini boshqarish emas, balki iste'molchilarning mahsulot yoki xizmatni iste'mol qilishdan qoniqishini shakllantirish marketingidir.

«Marketing strategiyasi» so'nggi yillarda birmuncha o'zgardi. Ilgari marketing strategiyasi – bu strategik vazifalarni bajarish bo'yicha marketing harakatlari rejasi deyilgan bo'lsa, hozirgi zamon voqeligida marketing strategiyasi biznes vazifalarini samarali hal qilish uchun resurslar va marketing xarajatlarini taqsimlashni nazarda tutadi.

Marketing strategiyasi har qanday kompaniyaga, uning ko'lami qanday bo'lishidan qat'i nazar: kichik korxonalarga ham, o'rta va yirik firmalarga ham birdek zarur. Iqtisodiy mavhumlik sharoitida marketing strategiyasiga ehtiyoj keskin oshib ketadi, chunki kompaniyaning o'z resurslari yetishmaydi va samarali xo'jalik yuritish uchun iqtisodiy resurslarning barchasini oqilona joylashtirish hamda ulardan foydalanish talab etiladi [9].

Marketing strategiyasini marketing faoliyati yo'nalishlarining butun bir bloki sifatida tasavvur qilish mumkin, aynan ular strategiya yo'nalishini shakllantiradi. Zamonaviy marketing strategiyasi uchta "K"ni amalga oshirishni ta'minlashi shart: koordinatsiya (muvoqilashtirish), konsentratsiya (jamlash) va kommunikatsiya. Marketing strategiyasi marketingga yo'naltirilgan resurslarni ular strategik biznes vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi uchun o'zaro muvoqilashtiradi.

Kompaniyada ishlaydigan marketologlar o'z oldida turgan vazifalarni qanday hal qilish yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lishlari, o'z funksiyalarini qanday bajarishlarini tushunishlari zarur. Aynan marketing strategiyasi turli nuqtai nazarlarni muvoqilashtirib, marketing vazifalarining bajarilishini ta'minlaydi, bunda marketing faoliyati kompaniya ishining turli yo'nalishlarini uyg'unlashtiradi.

Xodimlar marketing strategiyasi konsepsiyasini va har bir xodimning uni amalga oshirishdagi majburiyatlarini tushunishi uchun marketing strategiyasi xodimlar va hamkasblar o'rtasida, menejment va rahbariyat o'rtasida samarali kommunikatsiyalarni yo'lga qo'yishi kerak.

Ichki bozorlarda keskin raqobat sharoitida kompaniyalarning pozitsiyasi marketing strategiyasining qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi. Agar xodimlar o'z harakatlarini muvoqilashtirsa,

sa'y-harakatlarini kerakli yo'nalishda jamlasalar va ish yakunlarini atrofdegilarga taqdim etsalar, strategiyani amalga oshirish natijasi eng yuqori darajada bo'lishi mumkin.

Mahsulotning zamonaviy marketing strategiyasi to'rtta komponentdan iborat: maqsadli bozor, iqtisodiy vazifalar, mahsulotning xaridorlar ongidagi tasavvuri va dasturlar. Targeting va mahsulot tasavvuri marketing strategiyasining asosini tashkil etadi. Ushbu yo'nalishlarda ishlamasdan marketing strategiyasi harakatlarni muvofiqlashtira olmaydi, jamlay olmaydi va atrofdegilarga muhim axborotni yetkaza olmaydi. Marketing strategiyasini aniq tushunmasdan, bozorning maqsadli segmentlarini tanlamasdan va ularda mahsulot tasavvurini yaratmasdan marketingning taktik dasturlarini ishlab chiqib bo'lmaydi.

Taktik marketing strategik marketingning o'rnini to'liq bosa olmaydi, va mavhumlik sharoitida marketing taktikasining o'zi uchun yetarli ekanligi haqidagi nuqtai nazar o'ta xavfli xato bo'lishi mumkin. Marketing strategiyasiga ega bo'lmasdan turib, marketing sohasida taktik qarorlarni qabul qilish ularning kelajakdagi oqibatlarini hisobga olmasdan harakat qilishga tengdir.

Maishiy texnika mahsulotlarining asosiy xususiyati shundan iboratki, bitta iste'molchi uni tez-tez xarid qilavermaydi, aksariyat hollarda bu bir martalik xarid bo'ladi va shu bilan kiyim-kechak yoki oziq-ovqat mahsulotlaridan farq qiladi. Albatta, texnika ham eskiradi, modernizatsiya doim davom etadi, yangi kvartiralar xarid qilinadi, iste'molchilarning ehtiyojlari o'zgarib boradi va ular texnikani yangilashga qaror qiladilar, ammo bu kam uchraydigan hol.

Shuning uchun birinchi o'ringa mijozni ushlab qolish emas, balki uni jalb qilish chiqadi. Tegishincha, kompaniyaning imijli reklamasi eng katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, mahsulot assortimenti katta bo'lgan jiddiy kompaniya obrazini yaratish yoki yanada ta'kidlash, yoxud bu inqiroz uning tarixidagi birinchisi emas va u hech qachon buyurtmachilarini aldab ketmaganini ko'rsatish. Bu, ayniqsa, mahsulotni buyurtma asosida tayyorlaydigan yoki sotadigan kompaniyalar uchun muhimdir. Bu holda xaridor uchun kompaniyaning ishonchligiga talablar oshadi.

Tabiiyki, inqirozda reklamaga budgetni butunlay qisqartirish ma'qul ko'rinadi, ammo bir ingliz tarixchisi aytganidek, reklamasiz faqat pul chiqaradigan zarbxona pul qilishi mumkin. Reklamadan voz kechmaslik kerak, aks holda sizni tezda unutishadi. Ammo xarajatlarni ancha qisqartirish mumkin. Birinchidan, imijli reklamaga e'tiborni ko'proq qarating. Ikkinchidan, reklamaga ajratilgan mablag'larni sarflash yo'nalishlarini tahlil qiling. Buning uchun talabni, iste'molchilarning ehtiyojlari va xulq-atvorini hamda raqobatchilarning harakatlarini sinchiklab o'rganish kerak. Tekshirilmagan reklama yo'nalishlaridan voz keching, ya'ni agar siz qandaydir yo'nalish tomoshabinlari sizning yangi taklifingizga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rmoqchi bo'lsangiz, bunday tadbirni yaxshiroq kunlarga qoldirganingiz ma'qul. Hozir esa eng katta daromadni berishi kutilayotgan xaridorlar toifasini nishonga oling.

Marketing sohasidagi ba'zi bir maslahatchilarning fikricha, yashirinish va qisqartirish o'rniga faol harakat qilish kerak. Aynan inqiroz davrida bozorni qo'lga olish imkoni paydo bo'ladi. Bor-yo'g'i tashabbus va sog'lom hisob-kitob kerak. Kompaniya mahsuloti va xizmatlarini ilgari surish uchun marketing vositalarini tanlashga juda puxta yondashish zarur.

Ushbu dissertatsiyaning 2.2-paragrafida o'rganilgan omillar asosida O'zbekiston Respublikasi elektrotexnika sanoatining 2025-yilgacha rivojlanish prognozini ishlab chiqamiz.


O'zbekiston Respublikasi elektrotexnika sanoatining ma'lumotlari bo'yicha tuzilgan (2.5) ko'p omilli ekonometrik model bo'yicha ham parametrlarning ishonchligini tekshiramiz. Ishonchlilik ehtimoli va ozodlik darajasi $d.f. = 22 - 4 - 1 = 17$ bo'lganda, t-mezonning jadval qiymati $t_{jadval} = 2,054$ ga teng. Mazkur korxonaga uchun ham t-mezonning hisoblangan qiymatlari aniqlikda jadval qiymatidan katta ekanligini ko'rish mumkin. Ko'p omilli ekonometrik model (3.5) da barcha ta'sir etuvchi omillar modelda qoldiriladi va prognozda foydalaniladi.

Ko'p omilli ekonometrik modellar (2.4) va (2.5) bo'yicha natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyani tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz. Hisoblangan DW qiymati jadvaldagi DWL va DWU bilan solishtiriladi. Agar $DW_{hisob} < DWL$ bo'lsa, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud deyiladi. Agar $DW_{hisob} > DWU$ bo'lsa, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud emas deyiladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoatining (Y2) ma'lumotlari asosida tuzilgan (2.4) ko'p omilli ekonometrik model bo'yicha Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiymati $DWL = 0,79$ ga teng va yuqori chegarasi qiymati $DWU = 1,68$ ga teng. $DW_{hisob} = 2,026$ ga teng. Demak, $DW_{hisob} > DWU$ bo'lgani uchun natijaviy omil (tekstil mahsulot hajmi (lny)) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas ekan.

Tadqiqot obyekti bo'yicha natijaviy omil qoldiqlarida (Y1, Y2, Y3) avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi ham yuqorida keltirilgan (2.4) va (2.5) ko'p omilli ekonometrik modellardan prognozda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

(2.4) va (2.5) ko'p omilli ekonometrik modellarning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o'rtasidagi farqlar (Residual) quyidagi 1 va 2-rasmlarda keltirilgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoatining mahsuloti hajmining haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o'rtasidagi farqlar (Residual) grafigi


1 -rasmdan ko'rish mumkinki (2.4) va (2.5) ko'p omilli ekonometrik modellar bo'yicha hisoblangan qiymatlar grafigi uning haqiqiy qiymatlari grafigi bilan juda yaqin joylashgan, ular o'rtasidagi farqlar ham unchalik katta emas. Bu esa (2.4) va (2.5) ko'p omilli ekonometrik modellardan kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkinligini yana bir isboti hisoblanadi.

Hisoblangan (2.4) va (2.5) ko'p omilli ekonometrik modellardan kelgusi davrlarga natijaviy ko'rsatkichni prognozlashda MARE (Mean absolute percent error – foizlardagi o'rtacha absolyut xatolik) koeffitsiyenti hisoblanadi va u quyidagi formula yordamida topiladi:

$$MAPE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \frac{|y_i - \hat{y}_i|}{y_i} \cdot 100\% \quad (3.6)$$

bu yerda y_i - natijaviy omilning haqiqiy qiymatlari, \hat{y}_i - natijaviy omilning hisoblangan qiymatlari.

Agar hisoblangan MARE koeffitsiyenti qiymati 15,0 foizdan kichik bo'lsa, modeldan natijaviy omilni prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi, aks holda foydalanib bo'lmaydi.



Forecast:	Y1F
Actual:	Y1
Forecast sample:	2010 2021
Included observations:	12
Root Mean Squared Error	486.0248
Mean Absolute Error	391.7736
Mean Abs. Percent Error	53.47315
Theil Inequality Coefficient	0.115171
Bias Proportion	0.000000
Variance Proportion	0.023643
Covariance Proportion	0.976357

2-rasm. O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati bo'yicha hisoblangan modeldan prognozda foydalanish ko'rsatkichlari

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik modellar qator mezonlar yordamida tekshirildi va undan kelgusi davrlarda omillarni prognozlashda foydalanish mumkinligi aniqlandi va kelgusi davrlarga prognoz hisoblarini amalga oshiramiz.

O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosini hal qilish uchun ikkita variant mavjudligini ko'rsatadi.

1. Inersion ssenariy mamlakatning elektrotexnika sanoati kompleksi rivojlanishidagi mavjud tendensiyalarni hech qanday katta o'zgarishsiz mavjud rivojlanish dinamikasini saqlashni ta'minlaydi. Bu ichki bozorda import ulushining yanada oshishiga va keyinchalik ushbu tarmoq eksportini qisman qisqarishiga olib keladi.

2. Maqsadli modernizatsion ssenariysi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ilmiy-tadqiqot sohasida, korxonalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash olib boriladi, korxonalarda raqobat razvedkasi faoliyati yo'lga qo'yiladi, tashki va ichki muxitdagi xavf-xatarlarga karshi strategiya ishlab chikishni ko'zda tutadi.

Elektrotexnika sanoati sanoatining mahsulot ishlab chiqarish hajmini prognozlashning asosiy maqsadi mahsulot sotishdan tushgan sof tushum, aktivlar rentabelligi, mulk qiymatining oshishi, kimyo sanoati tarmog'ida ishlab chikarish salohiyatidan maksimal foydalanilishi orqali erishiladigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblashdan iborat. O'zbekiston Respublikasida elektrotexnika sanoati tarmog'ida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning 2001-2020 yillardagi o'zgarishlari va ushbu asosiy vositalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi asosida istiqbolli o'zgarishlarni bir necha ssenariylarda prognozlash mumkin.

Ishlab chiqarish hajmining prognozlashda tekshirilayotgan yillar davomidagi eng yuqori erishgan darajaga nisbatan qabul qilish maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasining inersion ssenariy hamda rivojlanishning minimal kritik nuqtasi holatidagi prognozlash uchun regressiya funksiyalari asosida natijalar olindi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida elektr uskunalar hamda kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarishning 2030-yilgacha uchun prognoz ko'rsatkichlari (mlrd.so'm)

Yillar	O'zbekiston Respublikasida elektr uskunalar ishlab chiqarishning 2030-yilgacha uchun prognoz ko'rsatkichlari		O'zbekiston Respublikasida kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarishning 2030-yilgacha uchun prognoz ko'rsatkichlari	
	Inersion ssenariy	Maqsadli modernizatsion ssenariy	Inersion ssenariy	Maqsadli modernizatsion ssenariy
2025	12582,3	17997,5	4706,8	10200,4
2026	13513,3	19784,0	5055,1	11242,9
2027	14444,3	21766,8	5403,4	12391,6
2028	15375,3	23749,7	5751,7	13540,3
2029	16306,3	25732,6	6100	14689,1
2030	17237,3	27715,5	6448,3	15837,8

Olingan model (1) bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining ahamiyatligi $R^2 = 0.88$ da $p \leq 0,05$ bo'lib, prognozni model bo'yicha olingan qiymatlari asosli ekanligini bildiradi.

Olingan regressiya modellari asosida inersion ssenariy elektr uskunalar ishlab chiqarish hajmi 2030-yilda 17237,3 mlrd. so'mni tashkil etishi, maqsadli modernizatsion ssenariy elektrotexnika sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2030-yilda 27715,5 mlrd. so'mni tashkil etishi aniqlandi (3.3.1-jadval).

Shuningdek, inersion ssenariy elektr uskunalar ishlab chiqarish hajmi 2030 yilda 6448,3 mlrd. so'mni tashkil etishi, maqsadli modernizatsion ssenariy elektrotexnika sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2025-yilda 15837,8 mlrd. so'mni tashkil etishi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublika bo'yicha elektrotexnika sanoati tarmog'ida 2030-yilgacha rejalashtirilayotgan modernizatsiya siyosati natijasida yuzaga keladigan optimistik ssenariy asosida rivojlanishi belgilangan bo'lib, uning quyidagi afzalliklari orqali amalga oshiriladi:

Iqtisodiyotning real sektori ilmiy-tadqiqot ishlari uchun xarajatlarning bir qismini moliyalashtirish orqali ilmiy-tadqiqot sohasida davlat-xususiy sheriklik aloqalarini rivojlantirish;

- litsenziya olish yoki ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida mashinasozlik kompaniyalari jalb etadigan ssudalar bo'yicha davlat kafolatlarini berish;

- korxonalarda marketing faoliyatini jadallashtirish, raqobat razvedkasini rivojlantirish.

Modernizatsion ssenariyni amalga oshirish natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi:

- olib borilayotgan izlanishlar va ishlanmalarning muvofiqlashtirilishini kuchaytirish hisobiga yangi mahsulotlarni yaratish va yaratish muddatlarini qisqartirish;

- budjetdan tashqari manbalardan qo'shma moliyalashtirishning o'sishi;

- investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimolini oshirish, tadqiqotlar va ishlanmalarning ustuvor yo'nalishlarini tanlashning mantiqiyliigi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Talaoui, Y. and Kohtamäki, M. (2020), «35 years of research on business intelligence process: a synthesis of a fragmented literature», Management Research Review, Vol. ahead-of-print No. ahead-ofprint. DOI: <https://doi.org/10.1108/MRR-07-2020-0386>;
3. Nyanga, C., Pansiri, J. and Chatibura, D. (2019), «Enhancing competitiveness in the tourism industry through the use of business intelligence: a literature review» // Journal of Tourism Futures. Vol. 6 No. 2, pp. 139-151. DOI: <https://doi.org/10.1108/JTF-11-2018-0069>;
4. Fahey, L. (2007), «Connecting strategy and competitive intelligence: refocusing intelligence to produce critical strategy inputs», Strategic Direction, Vol. 23 No. 4. DOI: <https://doi.org/10.1108/sd.2007.05623dad.003>; Platt, W. Strategic Intelligence Production. Basic Principles. – New York: Frederic A. Praeger, 1957.
5. Демин А. Государственная политика в области импортозамещения. Москва, 2004 г. стр-15.
6. Грибов В.Д., Грузинов В.П., Кузьменко В.А. Экономика организации (предприятия): учебник. – М.: КноРус, 2014. – 407 с.;
7. Доронин А. И. Бизнес-разведка. – М.: Ось-89, 2010. – 704 с.;
8. Степченко Т.С., Довбыш В.Е. Промышленный шпионаж и конкурентная разведка как современные методы изучения ситуации на рынке // Экономика и предпринимательство. – 2015. – № 11-1 (64). – С. 900-903.
9. Солдатова Н.Ф. Совершенствование механизма воздействия на конкурентоспособность малого предприятия // Труды Вольного экономического общества России. Том 179. С. 105- 112
10. <https://blog.bizconstructor.com/marketingovaya-strategiya-v-krizis>
11. http://www.marketup.ru/netcat_files/File/FM_02_09_market.pdf



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

23-24
OCTOBER
2025

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY
23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН –2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI